



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



CHIQUINDISIZ HAYOT SARI DADIL QADAM

Xidrnazarova Madina Dilshodovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Davolash ishi 1-kurs 111-guruh talabasi. Samarqand. Uzbekistan

Ilmiy rahbar. Mardiyeva Guzal Karimovna

Tadqiqotning maqsadi:

“Atrof muhitga qilgan munosabatimiz – o’zimizga qilgan munosabatimizdir”.

Tadqiqotdan ko’zlangan asosiy maqsad - XXI asrda global ekologik muammolar: plastik chiqindilarning uzoq vaqt saqlanishi, ya’ni biologik chiqindilar kabi parchalanmasligi, isrof, ifloslanish va tabiiy resurslarning qayta tiklanmasligi – dolzarb masalalardan biriga aylangan. Bu esa chiqindilarni to’g’ri boshqarish yo’llarini izlashga undaydi.

Bilamizki, Yaponiya ekologik siyosatda yetakchi davlatlardan biri sanaladi. Ayniqsa, Kamikatsu nomli kichik shaharchaning chiqindisiz jamiyat sari tashlagan qadamlari e’tiborga loyiqdir.

Tadqiqot materiali va uslublari:

Tadqiqot davomida quyidagi material va yondashuvlar asosida ishlov berildi:

-“BBC Future Planet” jurnalining “The Japanese town that’s almost zero waste” sahifasi. 2020

-Zero Waste International Alliance.

-Kamikatsu Zero Waste Center: <https://www.zwtk.jp> sayti.

Tadqiqot natijalari:

Yaponiyadagi Kamikatsu shaharchasi butun dunyoga o’zining nol chiqindi siyosati (zero waste policy) bilan tanilgan. Jahon sog’liqni saqlash va Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisobotlariga ko’ra, har yili dunyo bo’yicha 2 milliard tonnadan ortiq qattiq, ya’ni plastmassa chiqindilar hosil bo’ladi. Achinarlisi, ularning katta qismi qayta ishlanmaydi. 2003-yilda Yaponiya Respublikasining Tokushima prefekturasi(viloyati)da joylashgan Kamikatsu kichik shaharchasi chiqindilarni 100% qayta ishlash va poligonlardan foydalanmaslik maqsadini o’z ichiga olgan “Zero Waste” dasturini joriy qildi.

Dastur bo’yicha chiqindilar 45 turga ajratildi: plastmassa, shisha, gazeta qog’ozi, temir, alyuminiy va boshqalar. Hayratlanarlisi, har bir chiqindi turi uchun alohida qadoqlash, yuvish va topshirish talablari mavjud hamda maxsus yig’ish markazlari tashkil etilgan bo’lib, aholi chiqindilarni o’zlari olib kelib topshiradi. “Agar chiqindilarni saralay olmasak, ularni boshqarib bo’lmaydi” –deydi aholi. Ular hatto kompostlash uchun organik chiqindilarni ham o’zlari tayyorlaydi.

Plastmassa chiqindilari inson salomatligi, hayvonot va o’simlik dunyosi, suv va tuproq sifatiga bevosita tahdid solmoqdsha. Bu chiqindilarga qarshi kurashda bir qator choralarni ko’rish zarur:

-Is’temolni kamaytirish: Bir marttalik plastik mahsulotlardan foydalanishni cheklash.

-Qayta ishlash tizimini rivojlantirish: Rivojlangan davlatlarda plastmassa chiqindilarning 30-50% qayta ishlanadi, bizda esa bu ko’rsatkich hali past darajada. -Alternativ mahsulotlardan foydalanish: Bioparchalanadigan mahsulotlar, masalan, qog’oz, to’qimachilik mahsulotlari va o’simlik asosidagi idishlar joriy etilishi lozim. Aholi ongini





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



oshirish: Ekologik targ'ibot ishlari orqali fuqarolarda mas'uliyatni shakllantirish zarur. Bu nafaqat ekologik muhitni asrash, balki iqtisodiy jihatdan tejamkorlikka erishishga ham yordam beradi.

Xulosa:

Chiqindisiz hayot sari dadil qadam – (Yaponiya) Kamikatsu: 0% chiqindili jamiyat orqali butun dunyoga o'rnakdir. Ushbu tizimga ko'nikish aholi uchun ancha vaqt, ekologik mas'uliyat talab etgan bo'lsada, hozirda ular axlat poligonlarini to'liq yopishga, yer resurslarini tejashga, yashil iqtisodiyot rivojiga va 2020-yildagi chiqindilarning 80%dan ortig'i qayta ishlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Kamikatsu tajribasi shuni ko'rsatadiki, oddiy aholi ekologik ong va qat'iyat orqali chiqindisiz, toza hayotga erisha olishini va bunda yirik shaharlar, investitsiyalar emas, balki

| | |
|--|---|
| 1. .F.I.O.(to'liq) | Xidirnazarova Madina Dilshodovna |
| 1.Ishtirokchi bo'limi raqami | 2-BO'LIM..Gumanitar fanlar, Pedagogika, Tibbiyotda chet tillari. |
| 2.Seriyasi, pasport raqami | AD4691876 |
| 3.Status (talabalar ,magistratura ordinatorlari, klinik ordinatorlar, dissertantlar) | Talaba, 1-kurs 111-guruh Davolash ishi – 1 fakulteti |
| 4. Universitetning to'liq nomi | Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti SamDTU |
| 5.Ilmiy ishning nomi | Chiqindisiz hayot sari dadil qadam |
| 6. Ilmiy rahbarning ism-isharifi (to'liq) lavozimi, ilmiy darajasi, unvonini ko'rsatgan holda | Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası assistant:i Mardiyeva Go'zal Karimovna |
| 7.Ishtirokchi pochta manzili, telefon raqami | madinaxidirnazarova52@gmail.com +998944373306 |

fuqarolik yondashuvi sababli yashil, toza hayot tarziga o'tish yo'lini isbotladi. Kamikatsu tajribasi boshqa mintaqalar uchun o'rnak model sifatida tavsiya etiladi.

3-ilova.

Konferentsiyada oflayn formatda shaxsan ishtirok etish uchun ariza

| | |
|---|---|
| Uzbekistan, Samarkand | |
| Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti SamDTU | |
| ishtirokchi | |
| Ishtirokchi F.I.O | Xidirnazarova Madina Dilshodovna |
| Kurs, fakultet | 1-kurs Davolash ishi 1-son fakulteti 111-guruh talabasi |
| Bo'lim raqami | 2-BO'LIM. Gumanitar fanlar, Pedagogika, Tibbiyotda chet tillari |



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



| | |
|---|---|
| Ilmiy ishning nomi | Chiqindisiz hayot sari dadil qadam |
| Ilmiy rahbarning to;liq ismi, ilmiy darajasi | Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası assistant: Mardiyeva Go'zal Karimovna |
| Ishtirokchi va ilmiy rahbar aloqa telefon raqami, elektron pochta | Madinaxidirnazarova52@gmail.com +998944373306 |

